

Oliy Ta'lim Muassalarida Diskursiv Kompetensiya Asosida Ingliz Tilini O'qitishda "Topic Loop" Metodikasi Takomillashtirish

Muxamatjonova Diyora Rustam qizi

ChDPU mustaqil tadqiqotchisi, Email: Muxamatjonovdiyora@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutmoqda. Globallashtirish, ilmiy axborot oqimining oshishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan xorijiy tillarni, ayniqsa kasbiy matnlarni o'qish, tushunish va ulardan foydalanish malakasini talab qilmoqda. Mazkur tadqiqotda tibbiyot talabalari uchun o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Jumladan, tayyorlov (materiallarni o'qish, videodarsliklarni tahlil qilish, taqdimot va yozma ishlar tayyorlash), auditoriyada faol ishlash (muammoni tahlil qilish, baholash, fikr almashish), hamda darsdan keyingi bosqich (munozaralarda ishtirok etish, mustaqil xulosa chiqarish) kabi komponentlar asosida tuzilgan o'quv jarayonining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Strategy-Based Instruction, sintaktik, topic loop, terminologiya, metodologik

Kirish

Alohida e'tibor qaratilayotgan globallashtirish jarayonlari zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda. Bu holat demokratik jamiyatlar nuqtai nazaridan ingliz tilini kasbiy yo'nalishda o'qitish hamda ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Asl manbalardan kasbga oid adabiyotlarni o'qib tushunishga qodir, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarda turli sohalar bo'yicha mutaxassislarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va ularni chet tilida kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, tor ixtisosliklar bo'yicha ingliz tilini (English for Specific Purposes) o'rgatish, uni chet tili sifatida o'qitish (Teaching English as a Foreign Language), shuningdek, strategik yondashuv asosida o'qitish (Strategy-Based Instruction) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, ayniqsa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalari uchun chet tilini o'rgatish metodlari va strategiyalarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini ko'rsatadi.

Zamonaviy talablar asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni o'ziga xos yondashuv va metodik yechimlarni talab etadi. Xususan, tibbiy yo'nalishdagi talabalarga ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, bu jarayonning maqsad va vazifalarini aniq belgilash muhim hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning kasbiy faoliyatiga bevosita daxldor bo'lgan matnlar ustida ishlash orqali ularda kasbga yo'naltirilgan o'qish malakasini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishda kasbiy mazmundagi materiallarni tanlashda didaktik va metodologik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni, o'quv materiallari talabalarning kelajakdagi kasbiy ehtiyojlariga mos, ilmiy va terminologik jihatdan asoslangan bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'quv jarayonida tilni amaliy qo'llashga yo'naltirilgan strategiyalar, interaktiv metodlar va kontekstga asoslangan yondashuvlar qo'llaniladi.

Bu esa nafaqat tibbiy ingliz tilini puxta egallashga, balki professional muloqotda erkin fikr bildirish, ilmiy axborotni tahlil qilish va uni yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini kasbga yo'naltirilgan tarzda o'rgatish tibbiyot sohasi uchun dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot sharhi

Zamonaviy jamiyat globallashtirish, migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, ishlab chiqarish sohasining axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi, iqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda eng so'nggi misol sifatida COVID-19 pandemiyasi ta'sirida doimiy va jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Aynan pandemiya holati butun dunyo davlatlarini, shu jumladan, oliy ta'lim tizimini ham sinovdan o'tkazdi.

Ushbu favqulodda holat ta'lim jarayonlarini yangicha formatda tashkil etishga, dars berish uslublari va vositalarini qayta ko'rib chiqish, muqobil va noan'anaviy yondashuvlarni izlab topishga majbur etdi. Shunga qaramay, «Chet tili» fanining asosiy mazmuni saqlanib qoldi — u oliy ta'lim muassasalarining normativ hujjatlari va Yevropa ta'lim standartlari talablariga mos tarzda amalda qolmoqda.

Shu sababli, ushbu tadqiqotda eng muhim vazifalardan biri sifatida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari misolida chet tilini o'qitish jarayonining tuzilishi va mazmunini aniqlash ko'zda tutiladi. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish strategiyasi xorijiy tillarni egallashni zamonaviy bilimlar standartining asosiy tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Natijada, ingliz tilidan kasbiy va shaxsiy ehtiyojlar asosida foydalanish zaruriyati keskin ortmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida mamlakatimizdagi tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida chet tilini, xususan, ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlari o'rganish rejalashtirilgan. Bunda, ingliz tilining ma'lum bir sohaga moslashtirilgan holda o'rgatilishi (English for Specific Purposes — ESP) konsepsiyasi asos qilib olinadi. Tibbiyotga oid matnlar o'z tuzilishi, mazmuniy ko'lam va uslubi bilan boshqa sohalar matnlaridan sezilarli darajada farq qilishi bilan ajralib turadi.

Tilshunos olim Z.I. Klichnikova tomonidan chet tilidagi matnning yetti darajasi aniqlangan. Dastlabki ikki daraja — alohida so'zlar darajasida tushunishni ifodalaydi. Bu bosqichlarda ma'noli so'zlar, ularning omonim, omograf, antonim va sinonim shakllarini to'g'ri anglash qiyinchilik tug'diradi.

Iboralarni to'g'ri tushunishga oid daraja - sintaktik va morfologik murakkabliklarga duch kelganda yuzaga chiqadi. To'rtinchi va beshinchi darajalar matnning umumiy mazmunidan ko'ra, uning tafsilotlarini anglashni talab qiladi. Ushbu bosqichlar axborot turiga qarab har xil o'qish turlarini talab etadi. Oltinchi darajada matndagi chuqur ma'no qatlamlari tushuniladi, yettinchi bosqich esa barcha mazmuniy darajalarni anglashni o'z ichiga oladi.

Klichnikova fikricha, dastlabki besh bosqich matnning "ma'no doirasi"ni tashkil etadi, oxirgi ikki daraja esa matnning strukturaviy mazmunini anglashga taalluqlidir. Tadqiqotchilar bu yerda "ma'no doirasi" va "mazmun doirasi" o'rtasidagi tafovutni turlicha talqin etadilar¹. Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida chet tilini samarali o'rgatishda metodik va didaktik asos sifatida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar matndagi "ma'no doirasi" va "mazmun doirasi" farqini turlicha belgilaydilar. Shuningdek, tushunishning teranlik, aniqlik va qo'llash sohasi kabi jihatlari ajralib turadigan sifat darajasi xususiyatlariga e'tibor berish zarur bo'ladi².

¹ Klichnikova Z. I. Psychological features of teaching reading in a foreign language: a manual for a teacher / Z. I. Klichnikova. - M.: Enlightenment, 2003. - 207p.

² Гиззатова Л.А., Плотникова Н.Ф. Обучение студентов-медиков профессионально ориентированному Английскому языку. Казанский лингвистический журнал.- № 2 (4), 2019.- С. 67-73.


Ta'kidlash joizki, "tilni bilishning har qanday bosqichida matn tili va mavzusi bilim va tasavvurlarga qanchalik mos kelishidan qat'i nazar, turli xil tushunishdarajalari mavjud"ligi tufayli, yugorida keltirilgan darajalar tadqiqotchilar tomonidan bir-birini almashtiradigan va tilni bilish darajasini tavsiflovchi tushunish bosqichlari deb hisoblanmaydi³.

Metodologiya

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida ingliz tilini samarali o'qitish, ayniqsa kasbga yo'naltirilgan o'quv jarayonida, alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan Topic Loop metodikasi tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini kontekstual va bosqichma-bosqich o'zlashtirishda samarali yondashuv hisoblanadi.

Bu metodikaning asosiy tamoyili — o'quv jarayonida tanlangan tibbiy mavzuga (masalan, yurak-qon tomir tizimi, infeksiyon kasalliklar, dori vositalari) turli bosqichlarda qayta-qayta murojaat qilish orqali o'quvchilarning til kompetensiyasini chuqurlashtirishdir. Har bir qaytishda yangi lug'at, grammatik birliklar va kontekstual topshiriqlar orqali mavzu yanada kengaytiriladi va boyitiladi.

Topic Loop metodikasi asosida o'quvchilar biror mavzu doirasida turli savol-javoblar, topshiriqlar va muhokamalar orqali shu mavzuga qaytishadi, lekin har safar yangi til birliklari (yangi so'zlar, grammatik shakllar, iboralar) orqali uni chuqurroq o'zlashtiradilar.



Metodikaning asosiy bosqichlari:

1. *Mavzuni tanlash* - O'quvchilar uchun dolzarb va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlanadi (masalan, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, kasbiy faoliyat va h.k.).
2. *Mavzuni tanishtirish* - Yangi so'zlar, asosiy iboralar va grammatik qoidalar qisqacha tushuntiriladi.
3. *Birinchi muhokama* - Oddiy savol-javoblar va mashqlar orqali mavzuga kirish.
4. *Mavzuga qaytish (looping)* - Keyingi mashg'ulotlarda yoki suhbat bosqichlarida mavzuga qaytiladi, lekin bu safar:
 - Yangi savollar beriladi;
 - Yangi til birliklari kiritiladi;
 - Murakkabroq fikrlar bildirish talab etiladi.

³ Баранцева И. В. Оптимизация процесса обучения студентов-социологов пониманию иноязычного текста: автореферат дис. канд. пед.наук: - Пятигорск, 2005. - 23 с.

5. *Tahlil va mustahkamlash* - O'quvchilar fikr bildirishda tobora mustaqil va to'g'ri ifoda topishga harakat qiladilar.

Natijalar

Mazkur tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalariga mo'ljallangan kasbga yo'naltirilgan o'qish bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni tez fursatda qayta ko'rib chiqish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Bu ehtiyoj, avvalo, asl ilmiy manbalardan foydalanish darajasining pastligi va chet tilini o'qitishda hanuzgacha kuzatilayotgan bir xil va andozaviy yondashuvlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida ingliz tilini o'qitishda mazmun tanlovi muhim omil sifatida ko'rib chiqildi. Ayniqsa, tibbiyot fakulteti talabalarining imkoniyatlari, qobiliyatlari va real ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning o'qish ko'nikmalarini asl manbalarga asoslangan holda rivojlantirish ilmiy asoslangan zarurat sifatida ta'kidlandi.

Aniqlanishicha, ayniqsa pediatriya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'ziga xos kasbiy terminologiya, mavzular, leksik birliklar hamda o'qish va til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan mos o'quv materiallarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga asoslanib, chet tilini o'rgatishda tanlanadigan maqsad va vazifalar sohaga xos dolzarb masalalarni aks ettirishi, shuningdek, tilni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Bu muammolarning samarali yechimi esa, avvalo, talabalar o'rtasida intensiv o'qish ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa, kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili ta'limida real ehtiyojlarga mos, moslashtirilgan va zamonaviy yondashuvlar asosidagi metodikalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

O'qish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi zamonaviy ta'lim tizimining murakkab va ko'p bosqichli jarayonlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida o'qish malakasini rivojlantirishga oid metodlar va didaktik yondashuvlar o'zgarib, xilma-xil shakllarda namoyon bo'lgan. Ayniqsa, kasbga yo'naltirilgan matnlarni o'qishga o'rgatish jarayonida an'anaviy metodlardan foydalanish hozirgi zamonaviy o'qitish texnologiyalarida yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan.

Shu bois, pedagogik jarayonda innovatsion va nostandart yondashuvlarni qo'llash, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim va dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishga, balki ularning kasbiy ehtiyojlariga mos tarzda tilni o'zlashtirishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq holda bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Shu maqsadda, biz quyidagi ketma-ketlikdagi vazifalar tizimidan foydalanish muhim deb hisoblaymiz:

- **Tayyorlov bosqichi** – bu bosqichda talabalar matnli materiallarni o'qish, videodarsliklarni tomosha qilish, ularni tahlil qilish, slayd va taqdimotlar tayyorlash, yozma mashqlar bajarish kabi faoliyatlar orqali mavzuga kirishadi va dastlabki bilimlarni shakllantiradi;
- **Auditoriyada faol ishlash bosqichi** – bu jarayonda talabalar berilgan muammoni hal qilish, fikr almashish, matn yoki audiovizual materiallarni tahlil qilish va baholash, shuningdek, yakuniy xulosa va mulohazalarni ifodalash kabi ko'nikmalarni egallaydi. Bu bosqich interaktiv metodlar asosida tashkil etilishi bilan ahamiyatlidir;
- **Mustaqil ishlash bosqichi** – darsdan so'ng talabalar o'z bilim va fikrlarini mustahkamlash maqsadida turli konferensiyalar, onlayn forumlar va munozaralarda ishtirok etadi, o'qituvchi bilan suhbatlar orqali o'z mulohazalarini aniqlashtiradi va chuqurlashtiradi.

- Mazkur bosqichlar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni tibbiyot yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tilidagi kasbiy matnlarni chuqur anglash, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish va mustaqil tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Klychnikova Z. I. Psychological features of teaching reading in a foreign language: a manual for a teacher / Z. I. Klychnikova. - M.: Enlightenment, 2003. - 207p.
2. Гиззатова Л.А., Плотникова Н.Ф. Обучение студентов-медиков профессионально ориентированному Английскому языку. Казанский лингвистический журнал.- № 2 (4), 2019.- С. 67-73.
3. Баранцева И. В. Оптимизация процесса обучения студентов-социологов пониманию иноязычного текста: автореферат дис. канд. пед.наук. - Пятигорск, 2005. - 23 с.
4. M.U.Buranova Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘qishni o‘rgatishda noan’anaviy usullarning joriy qilinishi (ingliz tili materialida) mavzusidagi avtoreferat PhD, Samarqand 2023.
5. D.R.Muxamatjonova The influence of knowledge of tree method to develop students’ oral speech: Inter education and global study, 207-211
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9yBD-W8AAAAJ&citation_for_view=9yBD-W8AAAAJ:0EnyYjriUFMC